Mirzayeva Diyora

Toshkent davlat pedagogika unversiteti,

Maxsus Pedagogika va Inklyuziv ta'lim fakulteti,

Logopediya yònalishi 3 bosqich talabasi.

https://doi.org/10.5281/zenodo.7607580

https://explore.openaire.eu/search/publication?pid=10.5281%2Fzenodo.7607580

OBRAZLI XOTIRANING RIVOJLANISHI

Annotatsiya: Ongimiz aks ettirgan narsalarni mustahkamlash, saqlab qolish va keyinchalik esga tushirishdan iborat bo'lgan aqliy faoliyat xotira deyiladi. Xotira bola hayotining birinchi kunlaridanoq o'sa boshlaydi. Xotira nerv sistemasining o'sishi bilan birga, tarbiya va turli faoliyat (o'yin,o'qish, mehnat) hamda nutq vositasi bilan aloqa qilish jarayonida o'sib, takomillashib boradi. Xotira ta'limning asosiy shartidar.

Kalit so'zlar: harakat xotirasi, emotsional (hissiy), obrazli va sôz- mantiqiy xotira, aqliy rivojlanish, xotira hajmi, xotira sifati.

Xotira - biz ilgari idrok qilgan, boshdan kechirgan va bajargan ishlarimizni yodda saqlash, keyinchalik ularni eslash yoki xotirlash jarayoni. Xotira – shaxs psixik hayotini belgilab beruvchi xususiyat. Uning ahamiyati o'tmish voqealarini qayd etish bilan cheklanmaydi. Axir hozirgi zamondagi hech qanday harakatni jarayonlardan tashqarida tasavvur qilib bo'lmaydi; eng oddiy psixik aktning sodir bo'lishida har bir elementni keyingisiga bog'lash uchun esda saqlab qolish katta ahamiyatga ega. Bunday bog'lanishga layoqatsiz bo'lgan insonning rivojlanishi mumkin emas. Xotira xususiyatlarining orasida uning quyidagi tabiiy xossalari ajratiladi:

- yodda saqlash tezligi – axborotni xotirada saqlab qolish uchun zarur bo'lgan takrorlashlar soni;

- unutish tezligi – esda qolganlarning xotirada saqlanish muddati;

- yodda saqlash hajmi – insonning ma’lum vaqt ichida esda olib qolishga qodir bo‘lgan jismlar yoki dalillar soni;

- o‘zlashtirilganlarni yodda saqlash davomiyligi – insonning zarur axborotni ma’lum vaqt oralig‘ida yodda olib qolish qobiliyati;

- qayta tiklash aniqligi insonning xotirada saqlanib qolgan axborotni aniq saqlash, asosiysi esa, aniq ishlab chiqish qobiliyati;

- xotira shayligi – talab etilganlarni darhol esga tushirish malakasi.

Xotira qaerda saqlanadi? Ming yillar davomida tibbiyot xodimlari xotiraning saqlanish joyi – bosh miya ekanligiga ishonar edilar. O‘tgan asrda avval xotiradan ko‘tarilgan voqealar haqidagi axborotni o‘timish qa’ridan yuzaga chiqarish qobiliyati uchun javobgar bo‘lgan bosh miya nuqtalarini izlash ishlari boshlab yuborilgan edi. Lekin miya qutisi qancha tadqiq etilmasin, axborot to‘plash va saqlash vazifasini bajaruvchi hech qanday soha aniqlanmadi. Ma’lum bo‘lishicha, bu vazifani yaxlit miyaning o‘zi, uning yarim sharlari bajaradi.

Inson xotirasidagi assotsiatsiyalar 3 turga ajratiladi:

Yondoshlik assotsiatsiyasi - bir necha narsa yoki hodisalarni ayni bir vaqtda yoki ketma - ket idrok qilishdan hosil bòladi.

O'xshashlik assotsiatsiyasi - hozirgi paytda idkor qilinayotgan narsa bilan ilgari idrok qilingan narsa o'rtasida ma'lum òxshashlikka aytiladi.

Qarama - qarshilik assotsiatsiyasi - hozirgi idrok qilinayotgan narsalar bilan ilgari idrok qilinayotgan narsalar o'rtasida qarama - qarshi belgilar va xususiyatlar bòlganga aytiladi.

M. G. Davletshin tahriri ostida chiqqan "Umumiy psixologiya" o'quv qo'llanmasida quyidagi xotira kalssifikatsiyasi qays qilinadi:

Psixik faolligiga ko'ra: ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotira.

Faoliyat maqsadiga ko'ra: harakat, emotsional, obraz va so'z - mantiq xotirasi.

Muddatiga ko'ra: uzoq muddatli, qisqa muddatli va operativ xotira.

Harakat xotirasi - inson faoliyatining har bir turida ruhiy faollikning u yoki bu ko'rinishlarini ustunlik qilishida kuzatiladi.

His - tuyg'u yoki hissiyot xotirasi - bu xotira his - tuyg'ular, ruhiy kechinmalar, hissiyotlar, ehtiyojlarimiz va qiziqishlarimiz qanday qondirilayotganligidan, atrofimizdagi narsa va hodisalarning xususiyatiga nisbatan munosabatimiz qay tarzda amalga oshirilayotganligidan doimo xabar berib turish imkoniyatiga ega.

Obrazli xotira - yaqqol mazmunni, binobarin, narsa, hodisalarning aniq obrazlarini, ularning xususiyatlari va bog'lanishlarini esda qoldirish, ongda mustahkamlash hamda zaruriyat tug'ilganida esga tushirishdan iborat xotira turiga aytiladi.

So'z - mantiq xotirasi mazmunini fikr va mulohazalar, aniq hukm hamda xulosa chiqarishlar tashkil etadi.

Ixtiyoriy xotira deganda ma'lum maqsadni ro'yobga chiqarish uchun muayyan davrlarda aqliy harakatlarga suyangan holda amalga oshirilishidan iborat xotira jarayoni tushuniladi.

Ixtiyorsiz xotiraning turmushda va faoliyatda katta o'rin egallanishini har kim o'z shaxsiy tajribasidan bilinadi.

Qisqa muddatli xotira - qisqa muddatli esda qoldirilishini ta'minlaydigan xotira turi.

Operativ xotira inson tomonidan bevosita amalga oshirilayotgan faol tezkor harakatlar, usullari uchun xizmat qiluvchi jarayonni anglatuvchi mnemik holatga aytiladi.

Xotira jarayonlari quyidagilardan iborat:

Esda qoldirish o'zining faolligi jihatidan ikkiga bo'linadi:

a) ixtiyorsiz esda qoldirish - oldindan maqsad qo'yilmaydi, mavzu tanlabmaydi va iroda kuchi sarflanmaydi

b) ixtiyoriy esda qoldirish - oldindan maqsad qo'yib mavzu belgilanadi.

Ixtiyoriy esda qoldirishda quyidagi turli usullardan foydalaniladi:

maqsad qo'yish, masalan, institutga kirish oldidagi maqsad;

o'quv materillarini tushunib esda qoldirish;

esda qoldirishining ratsional usullaridan foydalanish, masalan, esga tushirish yo'li bilan esda qoldirish.

Psixologiya fanida esda olib qolishning quyidagi turlari mavjud:

Ma'lumot, xabar taassurot, axborot va materiallarni eshitish orqali idrok qilish hamda esda olib qolish.

Egallash yoki o'zlashtirish zarur bo'lgan materiallarni ko'rib idrok qilish yordamida esda olib qolish. Materiallarni harakat yordamida va eshitish orqali idrok qilish hamda esda olib qolish. Aralash holatda esda olib qolish, eshitish, ko'rish, harakat kabilar orqali idrok qilish va esda olib qolish yoki bir nechta ta'sir etuvchilar yordamida aks ettirish. Esda olib qolish jarayoni deganda sezgi, idrok, tafakkur, ichki kechinmalarni xotirada saqlanish xususiyati tushuniladi.

Esga tushirish - o'tmishda idrok qilingan narsalar, his - tuyg'u, fikr va ish - harajatlarning ongimizda qaytadan tiklanishiga aytiladi. Esga tushirishning nerv - fiziologik asoslari bosh miya po'stida ilgari hosil bo'lgan nerv bog'lanishlarning ko'zg'alishidir. Esga tushirishning quyidagi turlari mavjud:

Tanish - ilgari idrok qilingan narsa va hodisalarni takror idrok qilish natijasida u yoki bu hodisani esga tushirishdir.

Eslash - narsa va hodisalarni, uni ayni paytda idrok qilmay esga tushirishdir.

Bevosita eslash - tushirish materialni idrok qilish ketidanoq esga tushirishdan iborat.

Vaqt o'tkazib eslash - esda olib qolingan narsani oradan bir qancha vaqt o'tkazib esga tushirishdirki, bunda shu orada ongimizda boshqa jarayonlar o'tgandek bo'ladi.

Ixtiyorsiz esga tushirish - o'z oldiga biror bir maqsadni qo'ymasdan iroda kuchini sarf qilmasdan esga tushirishdir.

Ixtiyoriy esga tushirish - shaxs o'z oldiga biror bir maqsadni qo'yib, iroda kuchini sarflagan holda esga tushirishdir.

Esda saqlash deganda ilgari tug'ilgan taassurot, fikr, his - tuyg'u va ish - harakatlarning takrorlanishiga moyillik paydo qilishi va mustahkamlanishi tushuniladi.

Reministentsiya hodisasi (xira esga keltirish) - unutilgan narsalarni yana xotirada qaytadan tiklanishi deyiladi.

Esda olib qolish va unutish tezligiga ko'ra xotiraning quyidagi tiplari mavjud:

1) tez esda qoldirib, sekin unitish;

2) tez esda qoldirib, tez unutish;

3) sekin esda qoldirib, sekin unutish;

4) sekin esda qoldirib, tez unutish.

Xotira tasavvurlari - ilgari idrok qilingan narsa va hodisalar obrazlarining ongimizda qaytadan gavdalanishiga aytiladi.

Xotira jarayonining asoslari III - yo'nalishda o'rganilgan:

psixologik;

neyro - fiziologik;

bioximik.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Ontogenez psixologiyasi. E.G’oziyev. Toshkent.2010 y.
2. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. Z.T.Nishanova va boshqalar. Toshkent.2018
3. Maktabgacha ta’lim bolalar psixologiyasi. Toshkent. 2010 y.
4. P.I.Ivanov, M.E.Zufarova. Toshkent. 2014 y.